



AMALIY PRAGMATIKA: MUAMMO VA YECHIMLAR

Sattorova Feruza Elmurodovna

SamSIFL, senior teacher, PhD

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10021467>

ARTICLE INFO

Received: 14th Oktober 2023

Accepted: 18th Oktober 2023

Online: 19th Oktober 2023

KEY WORDS

Umumiy pragmatika,
sotsiopragsmatika, amaliy
pragmatika, muloqot jarayoni,
pragmatik qobilyat.

ABSTRACT

Ushbu maqola chet tili o'qitish ta'limida hozirgi paytdagi dolzarb muammolardan biri bo'lgan o'zga tilda samarali muloqot olib borishdagi mavjud muammolar va ularga amaliy pragmatika doirasida muallif tomonidan taklif qilingan ayrim mulohazalarga bag'ishlangan. Shuni ta'kidlash joizki, kommunikativ qobilyatda lisoniy bilimlardan tashqari pragmatik, sotsiopragsmatik va strategik qobilyatni shakllantiruvchi bilimlar ahamiyatlidir.

Keyingi yillarda pragmatikaning turli sohalari rivojlandi. Jumladan, *umumiy pragmatika (general pragmatics)*da tildan kommunikativ maqsadda foydalanishning tillararo umumiy va xususiy jihatlari o'rganilsa, *sotsiopragsmatika (sosiopragsmatics)*da tildan foydalanishning ijtimoiy omillari tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, yangidan shakllangan *amaliy pragmatika* yo'nalishida turli kasbiy muloqot sharoitlarida va chet tili ta'limi muhitida paydo bo'ladigan muammolarni bartaraf etish va muloqot samarasini oshirish vazifasi ko'zlanadi. Ingliz tili o'qituvchilarining har doim diqqat markazida bo'lgan asosiy muammolardan biri biz fikr yuritayotgan turli kasbiy muloqot sharoitlarida o'quvchilarni chet tilida yanada samarali muloqotga undash va rag'batlantirishni qanday amalga oshirish yo'lini tanlashdir. XXI asrda ko'plab sohalarda ulkan yutuqlarga erishildi. Yangi texnologiyalar paydo bo'lishi chet tili o'qitish linvodidaktikasida ham rivojlanishlar va o'zgarishlar vujudga kelishiga zamin yaratdi. Avvallari til o'rganuvchilarga passiv o'quvchi sifatida qaralardi va ular ko'pincha ingliz tili grammatikasi va lug'atini o'rganish bilan band edilar, hozirgi vaqtda ular kommunikator, ya'ni so'zlovchi bo'lishga o'rgatilyapti. So'nggi bir necha o'n yillikda kommunikativ qobiliyatni shakllantirish muammosi tillararo pragmatik tadqiqotlar obyektiga aylandi. Chet tili o'qitish borasida olib borilgan tadqiqotlarda pragmalingsvistik va sotsiopragsmatik bilimlardan tashkil topgan pragmatik kompetensiyani shakllantirish yo'llari izlanmoqda. Tillararo pragmatik tadqiqotlar mualliflari o'quvchilarning pragmatik bilimlari qanday namoyon bo'lishiga qiziqib ko'rdi, natijada ingliz tilini o'qitish jarayonida qator kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Pragmatika ingliz tilini o'qitishda qo'llab kelinayotgan kommunikativlik yo'nalishining asosiy tarkibiy qismi bo'lishiga qaramay, mavjud o'quv dasturlarida kompetensiyaning bu turi yetarli darajada qamrab olinmagan(1-ilova). Bunday e'tiborsizlikning sababi esa ingliz tilini ikkinchi til sifatida yoki chet tili sifatida o'qitishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq.



Keyingi yarim asrlik vaqt mobaynida til o'rganish va o'rgatish borasidagi tasavvurlarda katta o'zgarishlar sodir bo'lganiga guvohmiz[4,59].Turli yondashuvlar orasida "kommunikativlik asosida til o'qitish" til ta'limining eng keng tarqalgan usuliga aylandi va undan ko'zlangan asosiy maqsad til o'rganuvchilarning muloqotga kirisha olish qobiliyatini oshirishdir.Ushbu qobiliyatni tashkil etuvchi pragmatik kompetensiyani o'quvchilarda shakllantirish sohasida duch kelinayotgan kamchiliklar va bo'shliqlar muhokama qilib kelinayotgan bo'lsa-da, hali bu borada tizimiy natijalarga erishilingani yo'q.

Professor Sh.Safarov ta'kidlaganidek, lisonning inson tajribasi va faoliyatida tutgan o'rni bilan qiziqqan soha – pragmalingsvistika til va uning vositasida bajariladigan muloqot faoliyatining xususiyatlari haqidagi bilimning miqyosan hamda miqdoran kengayishi, boyishi uchun xizmat qilishi turgan gap[6,72]. Lekin ushbu "xizmat"ni faqatgina ilmiy tafakkur rivoji miqyosida ko'rmasdan, balki amaliy faoliyat doirasida namoyon bo'lishi darajasiga ham e'tibor berish kerak. Ravshanki, pragmalingsvistika o'tgan vaqt davomida baquvvat ildizlarini shakllantirib ko'plab empirik bilimlar bilan boyigan bo'lsa-da, ammo bu yo'nalishning til o'qitish pedagogikasi, boshqacha aytganda, lingvodidaktikadagi ahamiyatini inkor etmasak-da, fikrimizcha, pragmatik qobiliyatni qanday qilib til o'rganuvchilarda shakllantirish va kommunikatsiyani pragmatik bilim bilan muvaffaqiyatli olib borish yuzasidan yetarli natijalarni qo'lga kiritganimizcha yo'q. Chunonchi, amaliyotdan ma'lumki, muloqot qobiliyati nafaqat lisoniy bilimni, ya'ni grammatik jihatdan to'g'ri gaplarni shakllantirishni, balki pragmatik, sotsiologivistik va strategik qobiliyatlarni xuddi til egasidek muloqot qilishni shakllantirishni talab qiladi[2,13].

Xo'sh, bunday pragmatika bilan bog'liq nutqda uchraydigan muammolarni bartaraf etish uchun chet tili o'qituvchilari, asosan, ingliz tili o'qituvchilari nimalarga e'tibor berishlari kerak?

Bu savolning yechimini topish uchun faqat bir usul yoki yo'nalish yo'q, bunday muammoni bartaraf etish uchun o'qituvchidan izlanuvchanlik va pragmatik bilim talab qilinadi. Muloqotdagi pragmatik muammolarni bartaraf etishning amaliyotda qo'llanilgan va sinalgan quyidagi usullarini taklif etish mumkin.

Birinchidan, ingliz tili o'qitish materiallarini qayta ko'rib chiqib, ularni turli real hayotdagi vaziyatlar bilan boyitish kerak. Chunki bunday vaziyatlar turli nutqiy aktlardan (salomlashish, xayrlashish, maqtash, minnatdorchilik bildirish, taklif kiritish kabi) foydalanishni taqozo etadi. Bunda ona tilimizda me'yoriy bo'lgan nutqiy akt o'rganilayotgan tilda nomuvofiq bo'lishi mumkinligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Zero, tilshunoslar tomonidan olib borilgan amaliy tadqiqotlarda yaratib berilgan bir xil vaziyatlarda til o'rganuvchilarning javoblari shu tilda so'zlovchilarning javoblaridan tubdan farq qilgan.

Masalan, tilshunos K.Bardovi-Harlig tomonidan ingliz tilida so'zlashuvchi va ingliz tilini o'rganayotgan shaxslarga "agar rahbaringiz siz qiziqmaydigan kursni o'qishingizni taklif qilganda qanday javob bergan bo'lar edingiz" (*"a scenario in which their adviser had suggested that they take a course in which they were not interested"*) vaziyati o'rta tashlaganda javoblar tubdan farq qilgan:

- *I am not sure that I'm really interested in the topic. (Native speaker)*

- *I would rather not take this course because the topic doesn't interest me at all. (Non-native speaker)[1,19]*



Javoblardagi farqdan xulosa qilish mumkinki, odatda chet tilini o'rganayotganlar nutq aktlarini tanlashda "kuchliroq va jiddiyroq" shakllardan foydalanishga urinadi, mahalliy so'zlovchilar aksincha "yumshoqroq va oddiyroq" shakllarni o'z nutqlarida qo'llashni afzal ko'radilar. Bunday farqlarni bartaraf etishda ham pragmatlingvistikaning ahamiyatini inkor eta olmaymiz.

Ikkinchidan, til o'rganuvchilarning chet tilidagi muloqot qobiliyatini baholash maqsadida pragmatik testlarni tuzib, ular bilimni tekshirishning formal yo'llarini ishlab chiqish ham bu muammoning yechimiga yo'l ochadi.

Uchinchidan, muloqotni mazmunli olib borish uchun o'rganilayotgan tildagi shaxslararo munosabat normasi, milliy-madaniy qadriyatlar tizimi aks ettirilgan turli ko'rgazmali vositalar, xususan, autentik videolardan foydalanish ham muloqotda yuzaga kelishi mumkin anglashilmovchiliklarning oldini oladi. Bunda "pragmatlingvistikaning amaliy foydasi tegadigan sohalardan biri ta'lim va tarjima faoliyatlarini avtomatlashtirish, ularga axborot texnologiyalarini tatbiq etish bilan mashg'ul bo'lgan informatika va kompyuter tilshunoslik sohalari"[6,92] dan ta'lim jarayonida unumli foydalanishni kengaytirish berilgan muammoning yechimlaridan biridir. Keyingi yillarda olib borilgan madaniyatlararo izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bir madaniyatda qabul qilingan nutqiy faoliyat normasi ikkinchi madaniyatda uchrashi yoki umuman noo'rin bo'lishi mumkin. Zero, muloqot xulqi muammosini milliy xarakter – millatning o'ziga xos urf-odati, qadriyat va an'alarini hisobga olmay o'rganib bo'lmaydi. Muloqot axborotning mantiqiy mazmuniga emas, balki so'zlayotgan kimsaning ruhiy holati, hissiyoti, istaklarini ham ifodalashi mumkin[5,15]. Pragmatik bilimlar bunday muammolarni bartaraf etishning yangi yo'llarini izlashda ahamiyatli hisoblanadi.

Taklif qilingan mushohadalardan xulosa qilish mumkinki, hozirda pragmatlingvistika sohasida ko'plab nazariy va amaliy bilimlar aks etgan adabiyotlar mavjudligiga qaramay, bu sohaning til o'rgatishdagi lingvodidaktik ahamiyatini chuqur anglab yetganimizcha yo'q. Zero, til o'rganishda qo'llanilayotgan turli metod va usullar pragmatik qobiliyatni shakllantirish uchun yetarlicha xizmat qilmayapti. Bu muammoni bartaraf etish uchun dars jarayonida pragmatik qobiliyatni rivojlantirishda qanday imkoniyatlar borligini, bunda uni shakllantiruvchi turli amaliy mashg'ulotlardan iborat materiallarni yaratish va mavjud til o'rgatish yo'nalish va metodlaridan qaysilar kommunikativ qobiliyatda muhim bo'lgan pragmatikaning ahamiyatini qamrab olganligini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.

References:

1. Kenneth R.Rose, Gabriele K. Pragmatics in language teaching. – Cambridge.: Cambridge University Press., 2001. – P.19.
2. Lawrence F.Bouton . Pragmatics and language learning // – Monograph Series Volume 7, University of Illinois, 1996. – P.13.
3. Safarov Sh. Tilshunoslik terminlari lug'ati" Lug'at". – T.: "Lesson press", 2023. – B. 218.
4. Usó-Juan E., Martínez-Flor A. Current trends in the development and teaching of the four language skills. – Berlin.: Mouton de Gruyter, 2006. –P.159.
5. Имомова Х.К. Турк тилида хурмат категорияси. Филол. фани бўйича фалсафа.док (PhD) дисс.автореферати .Т., 2017. - Б.15.



6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.72.